



MAKTABDA OCHIQ DARSLARNI TASHKIL ETISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

*Azimjonova Shohida Ohunjonovna - Fargʻona viloyati Beshariq
tumani 12-umumiy oʻrta taʼlim maktab OʻIBDOʻ*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabda ochiq darslarni tashkil etishning nazariy asoslari, amaliy jihatlari va ulardan samarali foydalanish yoʻllari yoritilgan. Maqolada ochiq darsning mohiyati, pedagogik ahamiyati, uni rejalashtirish va oʻtkazish bosqichlari, shuningdek, tahlil qilish metodikasi koʻrib chiqilgan. Ochik darslarning oʻqituvchilarning kasbiy rivojlanishidagi oʻrni va uni zamonaviy taʼlim talablari asosida tashkil etish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit soʻzlar: ochiq dars, pedagogik mahorat, metodik tahlil, kasbiy rivojlanish, taʼlim sifati, nazorat, innovatsion metodlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы, практические аспекты организации открытых уроков в школе и пути их эффективного использования. Раскрывается сущность открытого урока, его педагогическое значение, этапы планирования и проведения, а также методика анализа. Исследована роль открытых уроков в профессиональном развитии учителей и вопросы их организации в соответствии с требованиями современного образования.

Ключевые слова: открытый урок, педагогическое мастерство, методический анализ, профессиональное развитие, качество образования, контроль, инновационные методы.

Abstract: This article covers the theoretical foundations, practical aspects of organizing open lessons in schools, and ways to use them effectively. The essence of an open lesson, its pedagogical significance, stages of planning and conducting, as well as the methodology of analysis are examined. The role of open lessons in the professional development of teachers and issues of their organization in accordance with modern educational requirements are investigated.



Keywords: *open lesson, pedagogical mastery, methodological analysis, professional development, quality of education, monitoring, innovative methods*

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, tajriba almashish va dars sifatini yaxshilash maqsadida ochiq darslar muhim o'rin egallaydi. Ochiq dars – bu nafaqat bir darsning namoyishi, balki pedagogik jamoani birlashtiruvchi, ilg'or tajribalarni tarqatuvchi va o'qituvchilarning o'zaro o'rganishiga imkon yaratuvchi talimiy tadbiridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni va 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida belgilangan vazifalar asosida maktablarda ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu maqsadlar amalga oshirishda ochiq darslar tashkil etish muhim vosita bo'lib xizmat qiladi[1.67]

Mazkur maqolada ochiq darsning pedagogik mohiyati, uni tashkil etish bosqichlari, tahlil metodikasi va samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Ochiq dars – o'qituvchi tomonidan tayyorlab, pedagogik jamoaning, ota-onalarning yoki boshqa mehmonlarning ishtirokida o'tkaziladigan, ilg'or pedagogik tajribani namoyish etishga mo'ljallangan maxsus dars shaklidir. U oddiy darsdan farqli o'laroq, bir nechta maqsadni ko'zlaydi: o'qituvchining kasbiy mahoratini ko'rsatish, hamkasblariga metodik yordam berish va dars tahlili orqali o'zaro tajriba almashishni ta'minlash [2.34].

Psixolog va didaktlar ochiq darsni professional o'sishning eng samarali usullaridan biri sifatida baholadilar. Masalan, rus pedagogi Yu.K.Babanskiy ta'kidlaganidek, “O'qituvchining kasbiy rivojlanishi bevosita o'z ish tajribasini tahlil qilish va hamkasblarining tajribasidan o'rganish jarayonida kichadi” [3.235]. Shu ma'noda ochiq dars ikki tomonlama foyda beradi: dars beruvchi o'qituvchi o'z metodikasini sayqallaydi, kuzatuvchilar esa yangi yondashuvlarni o'rganadi.

Ochiq darslarning pedagogik ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, u maktabda metodik ishning jonli ko'rinishi sifatida xizmat qiladi; ikkinchidan, yosh o'qituvchilarga tajribali pedagoglardan bevosita o'rganish



imkonini beradi; uchinchidan, o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan yangi metodlarni amalda sinab ko'rish maydoniga aylanadi; to'rtinchidan, jamoaviy muhokama orqali darsning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va takomillashtirish imkonini yaratadi.

Ochiq darsni tashkil etish bir necha ketma-ket bosqichni o'z ichiga oladi va har bir bosqichning to'g'ri amalga oshirilishi umumiy natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi[4.87].

Birinchi bosqich – mavzu tanlash va rejalashtirish. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari dars beruvchi o'qituvchi bilan birgalikda mavzuni tanlaydi. Mavzu tanlashda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratiladi: mavzuning o'quv dasturidagi o'rni; o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradigan tushunchalar; innovatsion metodlarni qo'llash imkoniyati mavjudligi.

Ikkinchi bosqich – metodik tayyorgarlik. O'qituvchi dars rejasini (texnologik xarita) tuzadi, qo'llaniladigan metodlar va vositalarni aniqlaydi, jihoz va materiallarni tayyorlaydi. Dars rejasi direktor o'rinbosari tomonidan oldindan ko'rib chiqiladi va metodik maslahatlar beriladi.

Uchinchi bosqich – kuzatuvchilarni tayyorlash. Ochiq darsga taklif qilinadigan o'qituvchilarga dars maqsadi, kuzatish mezonlari va tahlil usullari haqida oldindan ma'lumot beriladi. Bu kuzatuvchilarning darsga ongli va maqsadli yondashishini ta'minlaydi.

To'rtinchi bosqich – darsni o'tkazish. Dars belgilangan reja asosida o'tkaziladi. O'qituvchi tabiiy va erkin bo'lishi, mehmonlarning mavjudligidan qo'rqmasligi kerak. Kuzatuvchilar dars davomida o'quvchilar faoliyati, o'qituvchining metodlari va dars tuzilishiga e'tibor qaratadi.

Beshinchi bosqich – tahlil va muhokama. Ochiq darsdan so'ng darhol yoki kechiktirilmagan holda tahlil o'tkaziladi. Tahlil dars beruvchi o'qituvchining o'z-o'zini baholashidan boshlanadi, so'ngra kuzatuvchilar fikr bildiradi. Tahlil konstruktiv, dalillarga asoslangan va rivojlantiruvchi xarakter kasb etishi lozim.



Ochiq dars tahlili – bu pedagogik jarayon sifatida darsning samaradorligini ilmiy-metodik jihatdan baholash usulidir. Tahlil quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha olib boriladi[5.114].

Maqsad va vazifalar: Dars maqsadi to‘g‘ri va aniq qo‘yilganmi? O‘quv, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar amalga oshirilganmi?

Tarkibiy tuzilish: Dars bosqichlari mantiqiy ketma-ketlikda bo‘ldimi? Vaqt taqsimoti to‘g‘ri amalga oshirildimi?

Metodlar va usullar: O‘qituvchi qo‘llagan metodlar mavzuga va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosmi? Innovatsion metodlardan foydalanilganmi?

O‘quvchilar faolligi: Dars davomida o‘quvchilarning bilimga qiziqishi va faolligi ta‘minlandimi? Differensiatsiya amalga oshirildimi?

Baholash: O‘quvchilar baholash mezonlarini bildilarmi? Formativ baholashdan foydalanildimi?

V.A.Slastyonin va I.F.Isayevlarning “Pedagogika” darsligida ta’kidlanishicha, “Pedagogik tahlil o‘qituvchining refleksiv tafakkurini rivojlantirishning asosiy vositasidir”[6.78]. Demak, dars tahlili faqat kamchiliklarni ko‘rsatish emas, balki o‘qituvchining kasbiy o‘sishiga zamin yaratuvchi muloqot shaklidir.

OCHIQ DARSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

Ochiq darslardan maksimal darajada foyda olish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiq[7.145]:

Tizimli rejalashtirish. Har bir o‘quv yilida ochiq darslarni o‘tkazish jadvali oldindan tuzilishi va barcha o‘qituvchilar bilan kelishilishi zarur. O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari ushbu jarayonni koordinatsiya qiladi.

Ilg'or tajribani tarqatish. O‘tkazilgan ochiq darslar videoga olinishi, dars rejasi va tahlil natijalari elektron shaklda saqlanib, metodik to‘plamga kiritilishi maqsadga muvofiq. Bu boshqa o‘qituvchilar uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.



Yosh o'qituvchilarga yo'naltirilganlik. Ayniqsa, ish tajribasi kam o'qituvchilar uchun tajribali pedagoglarning ochiq darslari muhim ahamiyat kasb etadi. Nastavniklik tizimi doirasida ochiq darslar muntazam tashkil etilo'sa, yangi kadrlarning moslashish jarayoni tezlashadi.

O'zaro ochiq darslar. Faqat tajribali o'qituvchilar emas, balki turli yosh va tajriba darajasidagi pedagoglar ham o'z darslarini ochiq qo'yishi rag'batlantirilishi kerak. Bu pedagogik jamoada o'zaro o'rganish madaniyatini shakllantiradi.

Raqamli vositalardan foydalanish. Hozirgi kunda ochiq darslarni onlayn formatda ham o'tkazish imkoni mavjud. Google Meet, Zoom kabi platformalar orqali tuman yoki viloyat miqyosida ochiq darslarni tashkil etish hamda tajriba almashish samaradorligini oshiradi.

XULOSA. Maktabda ochiq darslarni tashkil etish – bu o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida, metodik ishning takomillashtirilishida va ta'lim sifatini oshirishda kuchli pedagogik vosita hisoblanadi. Ochiq dars to'g'ri tashkil etilganda, u o'qituvchi uchun o'z-o'zini tahlil qilish, hamkasblar uchun yangi metodlarni o'rganish, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari uchun esa ta'lim sifatini monitoring qilish imkonini beradi.

Ochiq darslardan samarali foydalanish uchun ularni tizimli rejalashtirish, natijalarni hujjatlashtirish, yosh o'qituvchilarni jalb etish va zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish zarur. Maktab ma'muriyati, birinchi navbatda, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari bu jarayonning tashkilotchisi va metodist-rahbari sifatida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ushbu maqolada bayon etilgan tavsiyalar maktab amaliyotiga tatbiq etilsa, ochiq darslar o'z-o'zidan rasmiy tadbirga aylanib qolmay, chin ma'noda pedagogik jamoani birlashtiruvchi va ta'lim sifatini oshiruvchi omilga aylanishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. Azizxo'jayev N.N. Zamonaviy dars: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. – 180 b.



3. Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса. – М.: Просвещение, 1982. – 192 с.
4. Слостёнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика: Учеб. пособие. – М.: Академия, 2002. – 576 с.
5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 224 b.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, 637-son. – Toshkent, 2020.
7. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000. – 144 b.